

### **2018 yil yanvar-fevral**

Viloyatda tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-fevral oylarida 160,5 mln. AQSh dollarni, shu jumladan eksport 35,6 mln. AQSh dollarni va import 124,8 mln. AQSh dollarni tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosi –89,2 mln. AQSh dollarni tashkil etdi.


Oxirgi yillarda viloyatning eksport tarkibida tovarlar va xizmatlar guruhlari bo'yicha o'sish kuzatilmoqda.

Mashina va asbob-uskunalarning eksporti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 32,8 foizga va kimyo mahsulotlari eksporti 24,3 foizga o'sdi.


Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti 14,5 mln. AQSh dollarni tashkil etib, oziq-ovqat mahsulotlari eksport hajmining 81,8 foizini tashkil etdi.

Viloyatda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-fevral oylarida 127,0 mln. AQSh dollarni, shu jumladan eksport 27,8 mln. AQSh dollarni va import 99,2 mln. AQSh dollarni tashkil qildi.

**Eksport**



**Import**



- Paxta tolasi
- Qora metal
- Oziq-ovqatlar

- Kimyo mahsulotlari
- Energetik mahsulotlar
- Xizmatlar

- Rangli metal
- Mashina va moslamalar
- Hokazolar



farlar 7,3 foizni tashkil etdi.


Importda eng katta ulushni, ya'ni 31,8 foizni mashina va asbob-uskunalar importi egallagan. Eksportda esa bu soha 3,9 foizlik natija bilan qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining eksportdagи ijobiy ko'rsatkichi (49,8 foiz) eksport hajmining deyarli yarmini tashkil etdi.

## Eksport va importda sohalar ulushlari

Import tarkibining umumiyligi hajmidan 31,8 foizini mashina va asbob-uskunalar, 33 foizini kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar tashkil qiladi.

Eksport tarkibining umumiyligi hajmidan 8,2 foizini xizmatlar eksporti tashkil qilib, bunda transport xizmati 58,0 foizni va sa-



2018 yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasi saldosi –89,2 mln. AQSh dollarni tashkil qildi, shundan MDH davlatlari bilan –20,2 mln. AQSh dollarni va boshqa davlatlar bilan –69,0 mln. AQSh dollarni tashkil etdi.


**2018 yilning yanvar-fevralida viloyatning tashqi savdo aylanmasi quyidagi ma'lumotlarda tavsiflanadi:**

	<i>mln.dollar</i>	<i>o'tgan yilga nisbatan, %</i>	<i>umumiylajmga nisbatan, %</i>
<b>Eksport</b>	<b>35,6</b>	<b>105,3</b>	<b>100</b>
paxta tolasi	-	-	-
oziq-ovqat mahsulotlari	17,7	86,0	49,8
kimyo mahsulotlari va undan tayyolagan buyumlar	0,8	124,3	2,1
qora va rangli metallar	4,2	4,6m	11,8
mashina va asbob-uskunalar	1,4	132,8	3,9
xizmatlar	2,9	88,3	8,2
boshqalar	8,6	119,0	24,2
<b>Import</b>	<b>124,8</b>	<b>137,2</b>	<b>100</b>
oziq-ovqat mahsulotlari	22,1	137,5	17,6
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	41,1	152,6	33,0
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	0,2	104,1	0,2
qora va rangli metallar	11,2	2,6m	9,0
mashina va asbob-uskunalar	39,7	120,5	31,8
xizmatlar	0,4	55,5	0,3
boshqalar	10,1	102,7	8,1

## **2018 yil yanvar-fevral oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda**

MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 36,1 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Afg'oniston, Braziliya, Hindiston, Eron, Latviya, Litva, Fransiya, AQSh, Italiya davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 63,9 foizni tashkil qildi.

Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmi 14,5 mln. AQSh dollarini, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 93,7 foizni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida 33,6 foizni sabzavotlar (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 68,8 foizni tashkil qildi), 24,6 foizni mevalar (92,6 foizni), 39,4 foizni uzum (128,3 foizni) va meva-sabzavot mahsulotlarining umumiy hajmidan 53,9 foizini qayta ishlangan meva va sabzavot mahsulotlari (101,6 foizni) tashkil qiladi.



*Tashqi savdo aylanmasida davlatlar ulushi, foizda*

**Tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkor davlatlar Qozog'iston (umumiy hajmdan 12,3 foiz), Rossiya (17,9 foiz), Afg'oniston (0,9 foiz), Xitoy (18,0 foiz), Turkiya (10,3 foiz), Qirg'iziston (0,4 foiz) va Iroq (0,3 foiz) hisoblanadi.**